

## BADIIY MATNDA MUALLIFNING TIL BOYLIKLARIDAN FOYDALANISH MAHORATI

**Saipova Madina**

Jizzax davlat pedagogika instituti magistranti

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” romanida qo‘llanilgan vulgarizm, varvarizm, jargon hamda shevaga oid so‘zlar tahlil qilingan, shuningdek yozuvchining so‘z qo‘llash mahorati haqida mulohazalar bildirilgan.

**Kalit so‘zlar:** Jargon, vulgar, varvar, sheva, tahlil, xulosa.

### **Аннотация**

В данной статье были проанализированы слова, относящиеся к вульгаризму, варварству, сленгу и диалекту, использованные в романе Тогая Мурада «Отамдан колган далалар», а также сделаны замечания о мастерстве писателя в использовании слов.

**Ключевые слова:** жаргонизм, вульгарность, варварство, диалект, анализ, резюме.

### **Annotation**

In this article, the words related to vulgarism, barbarism, slang and dialect used in Togay Murad’s novel “Otamdan qolgan dalalar” are analyzed, and comments are also made about the writer’s skill in using words.

**Key words:** Jargon, vulgar, barbaric, dialect, analysis, summary.

San‘atning so‘z bilan shamoyil topadigan badiiy adabiyot turi, boshqalaridan ko‘lam va ifoda yo‘sini bilan farqlanadigan favqulodda o‘ziga xos turidir. Shu ma’noda aytsak, badiiy adabiyot badiiy-estetik butunlik sifatida nihoyatda murakkab tarkiblanishga ega. Yaratilgan asar muallifi tafakkurining badiiy ifodasi sifatida namoyon bo‘ladigan ana shunday serqamrov butunlik mohiyatida badiiy asar tili tahlilining muhim o‘rni bor. Badiiy asar tahlili bilan shug‘ullangan olimlarimizning ta’kidlashlaricha, asar tilini tahlilga tortish bilan yozuvchining shaxsiy manerasini, uning tildan mohirona foydalanish imkoniyatlarini aniqlash uchun ijodkor yaratgan asarlar tilini o‘rganish nihoyatda muhimdir.

Badiiy matn tahlilida badiiy adabiyot tilining, xususan tahlil qilinayotgan matn tilining umumxalq tili, uning turli ko‘rinishlari va adabiy tilga munosabatini nazarda tutish muhim ahamiyatga ega. Badiiy matndagi til birliklariga baho berganda bu

birliklarning umumxalq tilidagi va adabiy tildagi maqomini inobatga olib, V.V.Vinogradov “Badiiy adabiyot tili haqida” nomli asarida shunday ta’kidlaydi, badiiy adabiyot tilining tarixiy harakatini umumxalq tili hamda uning turlari tarmoqlanishi tarixidan tamoman ajratilgan holda o’rganishning mumkin emasligi shubhasiz. Umumxalq tili, uning turli xududiy va ijtimoiy ko‘rinishlari bilan adabiy til o’rtasidagi munosabatlar tabiatining o’zgaruvchan bo‘lganligi uchun badiiy adabiyot tilining tarixiy harakatini umumxalq tili hamda adabiy tili bilan aloqalari, hamkorligi ham tarixan o’zgarib boradi.[1]

Mahoratli o‘zbek adibi Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” asaridagi har bir voqea tafsiloti va qahramonlar qiyofasi, nutqi va ichki o‘y-kechinmalari talqinida qishloq hayoti va paxtakorlar turmushini ich-ichidan bilgan va shu jafokash odamlar qalbiga qalbini payvand qilib, ularga astoydil hamdard bo‘la oladigan haqgo‘y va otashqalb bir adibning o‘tkir nigohi, chuqur ijodiy mushohadakorligi va ezgu niyatlari baralla sezilib turadi.

Men temirtish bilan dalalarimni yonboshlab-yonboshlab haydadim. Men temirtish bilan dalalarimni palaxsalab-palaxsalab haydadim.

Dalalarim osti ustun bo‘ldi, dalalarim usti ostin bo‘ldi.

Dalalarimda ko‘rsichqonlar o‘rmlab chopdi. Dalalarimda ko‘rsichqonlar yo‘rg‘alab chopdi.

Ha, o‘ynab qo‘yay, bidir-bidir yo‘rg‘alashlaringdan, o‘ynab qo‘yay, dedim.[2](102)

Asarda yozuvchi qahramonlar xarakteri hamda xalq xarakterini, ma’naviy dunyoqarashini ochib berishda xalq iboralaridan ham unumli foydalangan. Adib tabiat o‘zgarishlarini qahramonlarning kayfiyatiga bog‘lab o‘zgacha uslubda mahorat bilan ifodalangan.

O‘ynab qo‘yay, bundayin havoni oti nima bo‘ldi?

Qor yog‘madi,deyin dedim-havoda laylaklab qor o‘ynadi.

Laylaklab qor yog‘di , deyin dedim –yerda qordan nishona bo‘lmadi.

Dehqon bunday havoni:

- *Tulki qiziga to‘y berdi* , - deydi .[2](142)

“Tulki qiziga to‘y berdi” iborasi bu ota-bobolarimizdan qolgan iboradir. Yirik-yirik qor parchalari osmonda o‘ynoqlab ko‘rinish berib, quyosh nurlarini erinibgina sochib turganda uchib o‘ynayotgan qordan zaminda hech nishona bo‘lmagan paytni dehqonlar xuddi shu ibora bilan ta’riflashadi.

Aytish lozimki, og‘zaki nutqimizning tayyorgarliksiz va tayyorgarlik bilan ishlangan yozma nutq orasida muayyan tarkibiy va uslubiy farqlar, o‘ziga xosliklarning mavjudligi tabiiy hol albatta. Lekin bu o‘ziga xosliklar birining mahsulini matn, ikkinchisining mahsulini esa matn bo‘la olmaydi deyishga hech bir asos yo‘q. Shu nuqtayi nazardan, og‘zaki nutq birlamchi, yozma nutq esa ikkilamchidir, shuning

uchun ham yozma matn uchun og‘zaki nutq povdevor vazifasini bajaradi. Shubhasiz, matnni shakllantirishda har qanday vaziyatda ham so‘zlashuv uslubiga murojaat qilinadi.

-Ro‘zg‘or ishi bo‘lsa, ana, hamsoyamiz, devordan bo‘ylab aytsangiz ham bo‘lardi. Xo‘sh, nima ish ekan, ayting qani, hamsoya. [2](131)

Oqibat telpagim yag‘ir-yag‘ir bo‘lib qoldi. [2](133)

O‘zingnikidan qiz olma, demishlari haqqast chin bo‘ldi. [2](134)

Onamizdan panalatib-panalatib ayolimizga ko‘rmusht do‘laytirdim. [2](134)

Shuningdek, muallif asarda qo‘llanilishi chegaralangan varvarizm, vulgarizm so‘zlarni qo‘llagan.

-Ux, ti, baran! – deya urdi. [2] (216)

- Chto za baran?! – deya baqirdi.

- Ta-ak, endi navbatdagi yangi mashinani sinovdan o‘tkazamiz. [2] (213)

kabi varvarizmlar.

**Varvarizm** – boshqa tildan olingan; o‘zlashtiruvchi tilga to‘la singib ketmagan so‘z va iboralar. [3]

- Dehqonqul! Shu enag‘arga aytib qo‘y, qadamini tortsa tortdi, tortmasa, o‘z qo‘lim bilan kallasini olaman. [2] (48)

- Ay, kofir! – deydi. – Bir dalamni harom qilding! Endi bu dalamni-da bulg‘ama! [2](32), - Chunki sen chuchelasan, chuchela!

- Sart-sobakasan, sart-sobaka!

- Biz sen sart-sobakalarni O‘rusiyaga jo‘natamiz! [2](33) kabi vulgarizmlar.

**Vulgarizm** – adabiy tilda ishlatiladigan vulgar so‘z yoki iboralar. [3] Ya‘ni tilda mavjud bo‘lgan so‘kish, dag‘al yoki qarg‘ish so‘zlardir

-Suv? Suv qoldimi! Oq to‘ng‘izday ariq ag‘nay berib, suvni-da haromladi! It-da, ariq labidan yalab-yalab suv ichadi! Oqposhsho bo‘lsa, oq to‘ng‘izday ariq ag‘nadi. [2](18)

Momiq – momiq oqliqdan ko‘zlarimni ochdim.

Tong to‘rkadi.

Dunyo tagi oqarib – oqarib kela berdi. [2](195)

- Nimasi bo‘lmaydi, mixday-ku?

- Ishtonboqqa o‘xshab shalvirayapti. [2](208)

- Men o‘likko‘z katta nazari tushmasin deya o‘zimni chet-chet oldim. [2](211)

singari turli badiiy o‘xshatishlardan ham unumli foydalangan. Bu orqali yozuvchi kitobxonni xalq hayotiga bir muncha yaqinlashtirishga harakat qiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, badiiy matnda ifodalangan asosiy g'oya – fikr, mazmuni tushunish, anglash shunchaki ish emas, balki ancha qiyin va murakkab ijodiy jarayondir. Badiiy asarda mutlaqo o'ziga xos jihatlar, goh ochiq, goho yashirin, turli ishoralar, tag ma'no va o'xshatishlar, iboralar bilan boyitilgan asar mazmunining ma'nosini to'g'ri anglashga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. "Ta'lim to'g'risida"gi qonun .1998 yil . Ma'rifat.
2. Murod T. " Otamdan qolgan dalalar " – Toshkent, "O'zbekiston" 2021
3. [https://savodxon](https://savodxon.uz) .uz. O'zbek tilining izohli lug'ati.